



YOSH AVLODNI BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI VA BU BORADAGI CHORATADBIRLAR TEXNOLOGIYASI

Soatova Rayxona Sadriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ruhan yetuk, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda qadriyat, an'analarning ahamiyati va bu borada olib borilishi kerak bo'lgan ishlar bo'yicha taklif hamda fikrlar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, milliylik, insoniylik, urf-odatlar, an'ana, yuksaklik.*

Yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishning hamda unga xolisona baho berish, tarixiy yodgorliklarimizni asrash, borliqqa nisbatan yangicha munosabatning shakllanishi, shaxs erkinligi va haq-huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, yuksak qadriyatli ong va dunyoqarashning qaror topishini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda.

Ma'lumki, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.¹ An'analar xalqning tarixan shakllanishi va uning rivojlanishi jarayonida yaratilgan, ota-bobolardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan qadriyat xazina, boylikdir. Har bir millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan urf-odatlarini asrash va keyingi avlodlarga ham yetkazish har bir insonning muqaddas burchi desak, aslo, mubolag'a bo'lmaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug' an'ana – ulug' bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o'z muqaddas mulki deb tan olgan ma'naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy ma'naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va, birinchi navbatda, yosh avlod e'tiborini jalb

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>



etish maqsadini ko'zda tutadi.² Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Kamoliddin Behzod, Bobur Mirzo kabi ulug' bobolarimizga, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlar yuqoridagi fikrlarga yaqqol dalil bo'ladi.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizdan foydalanish hozirgi kunda ta'lim va tarbiya jarayoni oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham yurtimizda yaratilgan bu betakror an'ana, marosim, tadbirlar, urf-odat va qadriyatlarni o'rganish hamma vaqt ham olimlar oldiga bir qator vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan. Bu borada J. Hasanboyev, M. Turopova, O. Hasanboyeva, A. Mavrunov, U. Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini ³ alohida e'tiborga molikdir.

Milliy ma'naviyati barqaror shakllangan insonlar o'z millatining, yurtining manfaatini har qanday sharoitda himoya qila oladigan, Vatan qadri, sha'ni, shuhratini butun dunyoga tarannum eta oladigan insonlardir. Bunday shaxslarni shakllantirish borasidagi ishlarda, avvalo, yoshlarda mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ularga hayot mazmuni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy tarixi bilan tanishtirish hamda turli bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqlarini o'stirish, amaliyotga tadbir eta olish ko'nikmalarini shakllatirish kabi vazifalar yotadi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik, ehtirom bilan munosabatda bo'lish, keyingi avlodlarga ham yetkaza olish ruhida tarbiyalash borasida quyidagilarni taklif qilish mumkin.

² M. Imomnazarov, M. Eshmuhamedova. "Milliy ma'naviyatimiz asoslari". – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.

³ O.O. Yusufaliyev. (2021). Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mezonlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Vol.2, Issue 6, 880-885-betlar.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqning urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Insonlarning bir-biriga munosabati, mehr-oqibati, iltifot-ehtiromi, mehmondo'stligi, mehnatsevarligi, o'zini tuta bilishi xalqimizning ichki go'zalligini, ma'naviyatini ifodalaydi. Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali ularda oliyanoblik, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, saxiylik, oqillik, xushfe'llik, ibo-hayo, ota-ona va kattalarga hurmat, rostgo'ylik, ozodalik, insofilik kabi hislatlarni shakllantira olishimiz mumkin. Har bir shaxs, fuqaroda milliy ma'naviyat, milliy ong, milliylik tuyg'ularini yanada yuksaltirishda qadriyat, urf-odatlar hamda an'analar asosiy tayanch vazifalardan biri bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Imomnazarov, M. Eshmuhammedova. "Milliy ma'naviyatimiz asoslari". - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.
2. O.O. Yusufaliyev. (2021). Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mezonlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Vol.2, Issue 6, 880-885-betlar.
3. X.P. To'xtayev. (2022). Milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Vol.3, 512-517-betlar
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>